



## KAPITAL BOZORIDA INVESTORLARNING FAOLLIGINI OSHIRISHDA FOND INDEKSLARINING O'RNI

**Karimov Akramjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-9426-8777

**Annotatsiya.** Maqolada kapital bozoriga investorlarni keng jalb etishda fond indekslarining mohiyati va ularni hisoblash usullari atroflicha tahlil etilgan hamda ularga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, aksiyalar savdosini rivojlantirishda fond indekslarining ahamiyati, ularning daromadlilik darajasini savdo jarayonlariga ta'siri bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** kapital bozori, fond birjasi, aksiya, obligatsiya, investor, yillik daromadlilik, emitent, emissiya, fond indeksi, birjaviy indekslar, investitsiya, ETF, fundamental tahlil, texnik tahlil, bozor kapitallashuvi, ROE, ROA, ROI.

## РОЛЬ ФОНДОВЫХ ИНДЕКСОВ В ПОВЫШЕНИИ АКТИВНОСТИ ИНВЕСТОРОВ НА РЫНКЕ КАПИТАЛА

**Каримов Акрамжон**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье подробно анализируется сущность фондовых индексов в привлечении инвесторов на рынок капитала и методы их расчета, а также изучаются факторы, влияющие на них. Также описано значение фондовых индексов в развитии биржевой торговли, влияние их доходности на торговые процессы.

**Ключевые слова:** рынок капитала, фондовая биржа, акция, облигация, инвестор, годовая доходность, эмитент, выпуск, фондовый индекс, фондовые индексы, инвестиции, ETF, фундаментальный анализ, технический анализ, рыночная капитализация, ROE, ROA, ROI.

## THE ROLE OF STOCK INDICES IN INCREASING INVESTOR ACTIVITY IN THE CAPITAL MARKET

**Karimov Akramjon**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** The article analyzes in detail the essence of stock indices in attracting investors to the capital market and methods of their calculation, and also studies the factors influencing them. The importance of stock indices in the development of exchange trading and the influence of their profitability on trading processes are also described.

**Key words:** capital market, stock exchange, share, bond, investor, annual return, issuer, issue, stock index, stock indices, investments, ETF, fundamental analysis, technical analysis, market capitalization, ROE, ROA, ROI.

## Kirish.

Kapital bozori iqtisodiyotga moliyaviy resurslarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, kapital bozori infratuzilmalari orqali emitentlar o'zlariga yangi loyihalar yuzasidan zaruriy bo'lgan qarz mablag'larini past qiymatlarda jalb etishlari mumkindir. Ushbu o'rinda, xorijiy va mahalliy investorlarning kapital bozorida ishtirokini faollashtirish hamda ularni kompaniyalarning aksiyalari savdosi jarayonlariga keng jalb etishda bir qancha omillar, ko'rstakichlar mavjuddir. Shundaylardan biri esa – bu fond bozori indekslari bo'lib, ushbu ko'rsatkich milliy fond bozorlarida investorlar uchun asosiy hisoblanadi va ularning doimiy diqqat markazidir.

AQSHdagi yirik fond birjalaridan hisoblangan NYSE fond birjasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil davomida S&P 500 INDEX (\$SPX) indeksi eng quyi qiymati 3846,32 AQSH dollari va eng yuqori qiymati 4793,90 AQSH dollari yoki 124,63 foizga o'zgargan, NYSE COMPOSITE (DJ) (\$NYA) indeksi eng quyi qiymati 14471,08 AQSH dollari va eng yuqori qiymati 16933,62 AQSH dollari yoki 117,01 foizga o'zgargan, DOW JONES INDUSTRIAL AVERAGE (\$INDU) indeksi eng quyi qiymati 31429,82 AQSH dollari va eng yuqori qiymati 37778,85 AQSH dollari yoki 120,20 foizga o'zgargan bo'lsa (NYSE)<sup>20</sup>, London fond birjasidagi FTSE 100 indeksi eng quyi qiymati 7215,76 funt sterling va eng yuqori qiymati 8047,06 funt sterling yoki 111,52 foizga o'zgargan, FTSE 350 indeksi eng quyi qiymati 3976,3 funt sterling va eng yuqori qiymati 4440,35 funt sterling yoki 111,67 foizga o'zgargan(LSE)<sup>21</sup>. Shuningdek, 2023-yilda "Toshkent" RFBsidagi UCI indeksi 482,01 so'mdan 763,03 so'mgacha ko'tarilgan<sup>22</sup>. Ushbu jihatlarni olib qaraydigan bo'lsak, milliy iqtisodiyotda investorlarning faolligini oshirishda fond indekslari asosiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etsak bo'ladi.

## Adabiyotlar sharhi.

Aksiyalar bozorida turli fond indekslarining o'zgarish dinamikasini hamda investorlarga ushbu holatning ahamiyati bo'yicha xorijlik iqtisodchilar nazariy-amaliy tadqiqotlarni olib borganlar. Xususan, fond indekslarini vaqti-vaqti bilan qayta tashkil etish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, indeks tarkibidagi o'zgarishlar aksiyalari indeksga qo'shilgan yoki undan chiqarib yuborilgan firmalarning faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Birja indeksi tarkibidagi o'zgarishlar narxlarga, savdo hajmiga va firmaning boshqa xususiyatlariga ta'sir to'g'ridan to'g'ri tasir o'tkazadi (Afego, 2017).

Fond indeksi – bu qimmatli qog'ozlar bozori holatini baholash ko'rsatkichi bo'lib, sodir bo'layotgan makroiqtisodiy jarayonlarni kompleks ifodalaydi. Iqtisodiyotda inqirozlar sodir bo'lsa, uning miqdori pasayadi. Iqtisodiy o'sish davrida esa uning miqdori ortib boradi. Shuning uchun fond indekslarini barcha mamlakatlarda iqtisodiyot holatini umumlashgan miqdoriy ko'rsatkichlari deb qabul qilingan(Sherstyankina, 2007).

S&P 500 fond indeksi fyuchers bozorida savdo strategiyalarini amalga oshirishga gibril AI (sun'iy intellekt) yondashuvini taqdim etadi. Gibril AI yondashuvi S&P 500 fond indeksi fyucherslarida kunlik narx o'zgarishlari yo'nalishini aniq bashorat qilish uchun qoidalarga asoslangan tizimlar texnikasi va neyron tarmoqlar texnikasini birlashtiradi (Tsaih, Hsu & other, 1998).

S&P100 va NASDAQ100 indekslari uchun aksiyalarning daromadlilik va nazarda tutilgan o'zgaruvchanlik o'rtasida salbiy va statistik jihatdan muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rsishimiz mumkin. S&P100 indeksi uchun bu munosabat assimetrikdir, chunki salbiy fond indeksi daromadlari VIXda ijobiy daromadlarga qaraganda kattaroq o'zgarishlarni keltirib chiqaradi (Giot, 2005).

MDH davlatlarida faoliyat olib boruvchi iqtisodchilar investitsion portfelni hosil etishda indekslardan foydalanishning 4ta bosqichini taklif etganlar (Malyarov, Gerasimova, 2015).

<sup>20</sup> NYSE, n.d. <https://www.nyse.com/quote/index/DJI>

<sup>21</sup> LSE, n.d. <https://www.londonstockexchange.com/indices/ftse-100>

<sup>22</sup> "Toshkent RFB, 2023" [https://uzse.uz/price\\_indices](https://uzse.uz/price_indices)

Yurtimiz iqtisodchi olimlari moliya bozorida fond indekslarining iqtisodiy ahamiyatiga yuqori darajada e'tibor qaratib, fond indeksleri - kompaniya aksiyasi uchun narxlar darajasi va dinamikasini xarakterlovchi son, bu son tegishli vaqt mobaynida indeks ro'yxatiga kiritilgan bo'ladi (Shoxa'zamiy, 2007) deya ta'kidlangan, shuningdek, jahondagi mashhur moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro aksiyalar indeksleri xalqaro aksiyalar bozori rivojlanish indikatori hisoblanadi. Dastlabki xalqaro fond indekslaridan biri EAFE Index (Yevropa, Avstraliya va Uzoq sharq fond indeksi) hisoblanib, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Gonkong, Shveysariya, Avstraliya, Italiya, Gollandiya, Malayziya, Avstriya va boshqa jami 21ta davlatdagi 2000dan ortiq kompaniyalar aksiyalari asosida aniqlanadi. Shuningdek xalqaro aksiyalar bozori indeksleri sifatida Buyuk Britaniya aktuariylari instituti tomonidan ishlab chiqilgan FTW indeksi (The Financial Times World Index), GlobalIndex, SB-RGE kabilarni ham keltirish mumkin. Shuningdek, 1999 yildan DJGTIndex ham hisoblanib, dunyodagi 8 ta yirik fond bozorlariga ega davlatlar – AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Shveysariya va Gollandiyadagi 50 ta kompaniya asosida hisoblanadi (Elmirzayev, Shavkatov va boshq., 2023).

Fond indeksleri fond bozorining rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi asosiy ko'zgu hisoblanib, iqtisodchilar bayon etganidek, fond bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy risklarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishga, zamonaviy IT-texnologiyalarini joriy etishga, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga urg'u berish lozim (Eshov, 2020).

Fond indeksi – bu qimmatli qog'ozlar bozori holatini baholash ko'rsatkichi bo'lib, sodir bo'layotgan makroiqtisodiy jarayonlarni kompleks ifodalaydi. Iqtisodiyotda inqirozlar sodir bo'lsa, uning miqdori pasayadi. Iqtisodiy o'sish davrida esa uning miqdori ortib boradi. Shuning uchun fond indekslarini barcha mamlakatlarda iqtisodiyot holatini umumlashgan miqdoriy ko'rsatkichlari deb qabul qilingan (Elmirzayev, Muxamedov va boshq., 2023).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, kapital bozoriga investorlarni keng jalb etishda fond indekslarining mohiyati va ularni hisoblash usullari tahlil qilishda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro birjalar federatsiyasi, NYSE, NASDAQ, LSE va "Toshkent" RFB kabi fond birjalari rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Fond indeksi quyidagi asosiy maqsadlarga javob berishi lozim:


- fond bozoridagi holatni aniq va o'z vaqtida ifodalashi;
- bozor tendentsiyasi yo'nalishini prognoz qilish, taxnik tahlil usullari yordamida bozor holatini bashorat qilish uchun qulay va yaxshi vosita bo'lishi;
- turli milliy fond bozorlarida yirik strategik investitsiyalar qilish bilan shug'ullanadigan investorlarga aynan qaysi bir mamlakat bozoriga qaysi vaqtda o'z sarmoyalarini yo'naltirishi mumkinligi to'g'risida tegishli qaror qabul qilishi uchun yordam berishi;
- risklarni na faqat bozor doirasida, balki uning alohida ko'rsatkichlari (masalan, foiz stavkalari) bo'yicha xedjirlash maqsadida fyuchers va opsiyon shartnomalar uchun vosita bo'lib hizmat qilishi;
- "ishonchlilik-daromadlilik" toifalarida qimmatli qog'ozlarning optimal portfelini shakllantirish va samarali boshqarishda qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi;
- indeks yordamida ifodalanuvchi fond boyliklari bilan yoki ularning o'hshash (korrelyatsiyalanuvchi) bozorida ishlovchi treyder (yoki portfel boshqaruvchisi va h.k.) olishi lozim bo'lgan daromadning minimal bazaviy miqdorini ko'rsatishi;

- muayyan kompaniyalar boshqaruvchilarining ish sifatini tarmoqlar va umuman bozor bo'yicha o'rtacha qiymatlari sifatida bilan solishtirma baholash vositasi bo'lib xizmat qilishi;
- indeks portfelida keltirilgan instrumentlar muomalada bo'luvchi mamlakat bozorida uni tartiblashtiruvchi organlar faoliyatini tavsiflashi, iqtisodiy holat va investitsion muhitni aks etishi kerak (Elmirzayev, Muxamedov va boshq., 2023).

Fond indeksiga yaqin bo'lgan ETF(exchange-traded fund) tushunchasi mavjud bo'lib, u investitsion fondlar tomonidan tashkillashtirilgan turli moliyaviy instrumentlardan iborat bo'lgan portfelni o'z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, fond indeksleri orqali investorlarga axborotlar qulay va tushunarli tarzda yetkaziladi. Fond indeksi – bu o'zida bir qancha qimmatli qog'ozlarning kunlik o'zgarish dinamikasini ifodalovchi, tarkibi fond birjalari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan yaratilgan axborot ko'rinishidagi ko'rsatkich hisoblanib, investorlarning faollik darajasiga doimiy ravishda ta'sir etadi yoki ta'sirlanadi.

Kapital bozorida fond indekslarini hisoblash bir qator jarayonlarni, xususan, fond indeksi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va doimiy ravishda ma'lumot berib borishni talab etadi (1 - rasm).



1-rasm. Fond indeksleri hisob-kitobi jarayoni (Шерстянкина, 2007)

1-rasm ma'lumotlarida qayd etishimiz joizki, fond indekslarining hisob-kitob jarayonlari o'ziga yarasha murakkab bo'lib, bunda axborotlar to'laqlonligi muhimdir. Avvalambor, fond indeksleri fond birjalaridagi savdo natijalari asosida shakllantiriladi. Bizga ma'lumki, bir fond birjasida bir qancha fond indeksleri mavjud bo'lishi mumkin. Bunda har bir fond indeksining aksiyalar bazasi mavjud bo'lib, ularning savdo natijalari va qiymati tahlil etib boriladi. Indeks qiymatini aniqlashda kuzatilgan davr bo'yicha ko'rsatkichlarni jamlash va ularni tahlil etish turli usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bizga ma'lumki, xalqaro moliya bozorida eng muhim ko'rsatkich AQSHning NYSE fond birjasidagi DOW JONES fond indeksi hisoblanib, yirik institutsional investorlarning diqqat markazidadir va uning tarkibiy elementlari quyidagi jadvalda aks ettirilgan (1-jadval).


1-jadval

**DOW JONES INDUSTRIAL AVERAGE (DJIA) indeksning tarkibiy elementlari  
(Dow Jones, 2023)**

Kompaniya	Birja	Belgisi	Soha	Kiritilgan yil	Indeksdagi ulushi
3M	NYSE	MMM	Konglomerat	1976-08-09	1.54%
American Express	NYSE	AXP	Moliyaviy xizmatlar	1982-08-30	3.64%
Amgen	NASDAQ	AMGN	Biofarmatsevtika	2020-08-31	4.80%
Amazon	NASDAQ	AMZN	Chakana savdo	2024-02-26	2.93%
Apple	NASDAQ	AAPL	Axborot texnologiyalari	2015-03-19	3.04%
Boeing	NYSE	BA	Aerokosmik va mudofaa	1987-03-12	3.36%
Caterpillar	NYSE	CAT	Qurilish va konchilik	1991-05-06	5.45%
Chevron	NYSE	CVX	Neft sanoati	2008-02-19	2.59%
Cisco	NASDAQ	CSCO	Axborot texnologiyalari	2009-06-08	0.81%
Coca-Cola	NYSE	KO	Ichimlik sanoati	1987-03-12	1.02%
Disney	NYSE	DIS	Eshittirish va o'yin- kulgi	1991-05-06	1.81%
Dow	NYSE	DOW	Kimyo sanoati	1991-05-06	0.94%
Goldman Sachs	NYSE	GS	Moliyaviy xizmatlar	2019-04-02	6.54%
Home Depot	NYSE	HD	Uyni obodonlashtirish	1999-11-01	6.23%
Honeywell	NASDAQ	HON	Konglomerat	2020-08-31	3.34%
IBM	NYSE	IBM	Axborot texnologiyalari	1979-06-29	3.09%
Intel	NASDAQ	INTC	Yarimo'tkazgich sanoati	1999-11-01	0.72%
Johnson & Johnson	NYSE	JNJ	Farmatsevtika sanoati	1997-03-17	2.70%
JPMorgan Chase	NYSE	JPM	Moliyaviy xizmatlar	1991-05-06	3.07%
McDonald's	NYSE	MCD	Oziq-ovqat sanoati	1985-10-30	4.98%
Merck	NYSE	MRK	Farmatsevtika sanoati	1979-06-29	2.16%
Microsoft	NASDAQ	MSFT	Axborot texnologiyalari	1999-11-01	6.83%
Nike	NYSE	NKE	Kiyim sanoati	2013-09-20	1.75%
Procter & Gamble	NYSE	PG	Tez sotiladigan iste'mol tovarlari	1932-05-26	2.69%
Salesforce	NYSE	CRM	Axborot texnologiyalari	2020-08-31	5.04%
Travelers	NYSE	TRV	Sug'urta	2009-06-08	3.69%
UnitedHealth Group	NYSE	UNH	Boshqariladigan sog'liqni saqlash	2012-09-24	8.81%
Verizon	NYSE	VZ	Telekommunikatsiya sanoati	2004-04-08	0.67%
Visa	NYSE	V	Moliyaviy xizmatlar	2013-09-20	4.76%
Walmart	NYSE	WMT	Chakana savdo	1997-03-17	1.00%


1-jadval ma'lumotlarida DOW JONES INDUSTRIAL AVERAGE (DJIA) indeksning tarkibiy elementlari keltirilgan bo'lib, ular qatorida Amazon, Apple, Boeing, Coca-Cola, IBM, Intel, Johnson & Johnson, JPMorgan Chase, Microsoft, Nike, Procter & Gamble kabi yirik transmilliy kompaniyalarni ko'rishimiz mumkin.

NYSE COMPOSITE (DJ) NYA indeks ham AQSH iqtisodiyotida investorlarning diqqat e'tiborida bo'lib, so'nggi 10-yilda muntazam ravishda o'sib kelgan<sup>23</sup> (2-rasm).



**2-rasm. NYSE COMPOSITE (DJ) NYA indeksning so'nggi 10-yillik ko'rsatkichi, AQSH dollari<sup>24</sup>**

2-rasm ma'lumotlarida NYSE Composite indeksning so'nggi 10-yillik ko'rsatkichi tahlil etilgan bo'lib, ushbu indeks dunyodagi eng mashhur fond indekslaridan biridir. U Nyu-York fond birjasida sotiladigan barcha qimmatli qog'ozlar narxlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi, uning tarkibiga Qo'shma Shtatlar va xorijda ro'yxatga olingan, umumiy kapitallashuvi 20 trillion dollardan ortiq bo'lgan 2000 dan ortiq yirik kompaniyalar kiradi.



**3-rasm. S&P 500 INDEX (\$SPX) indeksning so'nggi 10-yillik ko'rsatkichi, AQSH dollari<sup>25</sup>**

<sup>23</sup> <https://www.nyse.com/quote/index/NYA>

<sup>24</sup> NYSE, 2023 n.d. <https://www.nyse.com/quote/index/DJI>

<sup>25</sup> NYSE, 2023 n.d. <https://www.nyse.com/quote/index/DJI>

3-rasm ma'lumotlarida AQSH fond birjasida S&P 500 INDEX (\$SPX)<sup>26</sup> indeksning so'nggi 10-yillik ko'rsatkichi tahlil etilgan bo'lib, 2020-yilning mart oyida ushbu indeksning tezkor volotilligi yuqori darajada o'zgarishini kuzatishimiz mumkindir.



**4-rasm. FTSE 350 indeksning so'nggi 10-yillik ko'rsatkichi, funt sterling<sup>27</sup>**

4-rasm ma'lumotlarida FTSE 350 indeksning so'nggi 10-yillik ma'lumotlari tahlil etilgan bo'lib, 2014-yil yanvar oyida indeks 3554.93 funt sterling va Bollinger Bands indekatori mos ravishda 3809.45, 2879.09, 3352.47 qiymatlarni ifoda etgan bo'lsa, 2023-yilning dekabr holatiga 4273.24 funt sterling va Bollinger Bands indekatori mos ravishda 4359.95, 3895.95, 4134.97 qiymatlarga erishgan. FTSE 350 indeksning so'nggi 10-yillikdagi eng quyi qiymati 2718.73ni eng yuqori qiymati 4440.35ni tashkil etgan<sup>28</sup>.

Milliy iqtisodiyotimizda "Toshkent" respublika fond birjasidagi listingdagi kompaniyalarni birlashtiruvchi UCI (uzbek composite index) indeksi mavjuddir. Uzbekistan composite index (UCI) bu "Toshkent" Respublika fond birjasining kompozit indeksi bo'lib, u o'zida birja kotirovkalar varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor holatini aks ettiradi. Birja UCI indeksini Yagona dasturiy-texnik majmua savdo platformasi orqali avtomatik tarzda, real vaqtlarda amalga oshiriladigan savdolar natijasida kelib chiqadigan narxlarga asosan hisoblaydi, shu sababdan, birja savdo kuni davomida tuzilgan bitimlarning xar biri UCI indeksiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. UCI indeksining hisoblash formulasi birjaning umumiy bozor kapitallashuviga asoslangan bo'lib, bunda quyidagilar nisbat sifatida hisoblanadi:

$$INDEX = \frac{\text{Market Cap Current date}}{\text{Market Cap Base date}} \times \text{Base Index}$$

bu yerda:


- Market Cap Current date - bu birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining joriy savdo sanasidagi bozor kapitallashuvi;
- Market Cap Base date - bu indeks yuzaga kelgan ma'lum sanadagi birja kotirovkalari varaqasiga kiritilgan barcha aksiya emitentlarining jami bozor kapitallashuvi hisoblanadi;
- Base Index - bu indeks ko'rsatkichi uchun belgilangan o'zgarmas son birligi - 1 000.

<sup>26</sup> <https://www.nyse.com/quote/index/SPX>

<sup>27</sup> LSE, n.d. 2023 <https://www.londonstockexchange.com/indices/ftse-100>

<sup>28</sup> <https://www.londonstockexchange.com/indices/ftse-350>

Bundan tashqari, birja savdo tizimi yuqorida keltirilgan metodologiyadan foydalangan holda emitentlarning qaysi iqtisodiy tarmoqlarga mansubligiga ko'ra subindekslarni hisoblaydi, bular: moliyaviy sektor, sanoat, agrosanoat kompleksi, qurilish sektori, ijtimoiy soha, transport, savdo va boshqa sektorlar (Maxkamova, Tuxtasinov, 2023).



**5-rasm. UCI indeksning so'nggi 1-yillik ko'rsatkichi, so'mda<sup>29</sup>**

5-rasm ma'lumotlarida UCI indeksning so'nggi 1-yillik ko'rsatkichi tahlil etilgan bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich 767 so'mni va eng quyi ko'rsatkich 482.01 so'mni tashkil etgan.

Aksiyalar bozorida bozor kapitallashuvi tushunchasi kompaniyaning erkin muomaladagi barcha aksiyalarining joriy bozor bahosiga ko'paytirish orqali aniqlanib, amaliy jihatdan kompaniyaning bozor bahosi hisoblanadi. Fond bozorida aksiyalar savdosi jarayonlarida kompaniyalarning bozor kapitallashuvi muhim ahamiyat ega hisoblanib, moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanish orqali ushbu ko'rsatkichni oshirish mumkindir (Karimov, 2023).

### Xulosa va takliflar.

Kapital bozorida investorlarning faolligini oshirishda fond indekslarining o'rni muhim ahamiyat kasb etib, fond bozori hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Fond indeksleri orqali mamlakatlardagi kompaniyalarda qanday o'zgarishlar bo'layotgani tez va oson ravishda anglab o'lsa bo'ladi. Ushbu jihatlarni inobatga olganda quyidagilarni milliy fond bozorimizga joriy etish zarurdir:

- milliy fond bozorida yuqori daromadli hamda likvidlikga ega bo'lgan fond indekslarini shakllantirish;
- EFTFlar bo'yicha amaliyotlarni keng joriy etish;
- xorijiy kompaniyalarni milliy fond bozorida listingdan o'tkazish orqali likvidlikni oshirish;
- xorijiy investitsion vositachilarga milliy fond bozorga tog'ridan tog'ri kirish imkonini yaratish;
- milliy fond indeksleri bo'yicha ma'lumotlarni investorlar uchun qulay tarzda joylashtirish.

Yuqoridagi inobatga olganda, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va unga xorijiy hamda mahalliy investorlarni keng jalb etishda fond indeksleri bo'yicha ma'lumotlarni samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etib, keltirib o'tilgan taklifni amaliyotga joriy etish soha rivojiga katta hissa qo'shadi.

<sup>29</sup> "Toshkent RFB, 2023" [https://uzse.uz/price\\_indices](https://uzse.uz/price_indices)



**Adabiyotlar/Literaturalar/Reference:**

- Afego P.N. (2017) *Effects of changes in stock index compositions: A literature survey* //International Review of Financial Analysis. – T. 52. – C. 228-239.
- Dow Jones (2024) *Companies Sorted by Weight*. Slickcharts. Retrieved February 26.
- Elmirzayev S., Muxamedov F., Abdikarimova D., Karimov A. (2023) *Moliya bozori va birja ishi: Darslik–T.: OOO«DIADEMA NUR SERVIS» 520 b.*
- Elmirzayev S., Shavkatov N., Sherkuziyeva N., Karimov A., Abduraximova D., Omonov S. (2023) *Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar: Darslik – T.: « Diadema nur servis » OOO. – 412 b.*
- Eshov M. (2020) *O'zbekiston fond bozoriga covid-19 koronavirus pandemiyasi ta'sirining ekonometrik tahlili* //Ekonomika i innovatsionnye texnologii. – 2020. – №. 5. – S. 236-243.
- Giot P. (2005) *Relationships between implied volatility indices and stock index returns* //Journal of Portfolio Management. – T. 31. – №. 3. – C. 92-100.
- Kadirova, R., & Karimov, A. (2022). *The role of investments in the development of uzbekistan economy*. Архив научных исследований, 4(1).
- Maxkamova G. va Tuxtasinov M. (2023), *“TOShKENT” Respublika fond birjasi uzbekistan composite index (UCI) indeksining tahlili, 5-bet (uzse.uz)*
- Shoxa'zamiy Sh.Sh. (2007) *Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik //T.: Iqtisod-moliya. – 2007. – T. 474.*
- Tsaih R., Hsu Y., Lai C. C. (1998) *Forecasting S&P 500 stock index futures with a hybrid AI system* //Decision support systems. –T. 23. – №. 2. – C. 161-174.
- Каримов, А. (2023). *Фонд бозоридаги акциялар савдоси жараёнларида молиявий технологиялар. Страховой рынок Узбекистана, 1(5), 57-60.*
- Маляров А.Н., Герасимова Е.А. (2015) *Портфель малой капитализации, имитирующий рыночный индекс* //Вестник СамГУПС. – №. 2-2. – С. 60-64.
- Шерстянкина Н.П. (2007) *Модели и методы анализа способов расчета фондовых индексов : дис. – Иркутск.*